

**INGLIZ TILINI BILISH TO`GRISIDAGI MILLIY YOKI XALQARO
SERTIFIKAT OLIISH UCHUN TAVSIYALAR**

*Yusupova Umida
Shodiyeva Kuxinur*

Termiz davlat universiteti 4-bosqich talabalari

Ilmiy rahbar: Boboqulova Oydin

Telefon raqami: +998992111436 / +998930767477

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda ommaviy til bo`lgan ingliz tilini o`rganishning samarali usullari va ingliz tilini bilish to`grisidagi milliy yoki xalqaro sertifikat olish uchun tavsiyalar berilgan. Bularning barchasi ingliz tili me`yorlariga asoslangan holatda yozilgan

Abstract: This article outlines some of the best ways to teach English and how to apply for national or international English certificate. All of these written in a case based on English standards.

Kalit so`zlar: til, ingliz tili, IELTS, milliy sertifikat, xalqaro sertifikat, tilni bilish, zamonaviy ta`lim, texnologiya.

Key words: language, English, IELTS, national certificate, international certificate, language learning, modern education, technology.

Hozirgi tezkor rivojlanayotgan zamonda ilm-fan, texnika ham shiddat bilan o`sib bormoqda. Har bir sohada taraqqiyot sari ildam qadm tashlanmoqda. Xususan ilm-fan sohasida ham katta o`zgarishlar va keng miqyosli yutuqlarga erishilmoqda. Har bir fanni yangi innovatsion pedagogik metodlar va texnologiyalardan foydalanib talabalarga yetkazib berish zamonamizning asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda xorijiy tillarni o`rgatishni ta`lim yo`nalishining ustuvor yonalishi sifatida rivojlantirish, ushbu sohaga malakali pedagoglarni jalb etish bo`yicha bir qancha ishlar olib borilmoqda va ular o`z samarasini berishni boshladi. Prezidentimiz tomonidan 2021-yil 19-mayda qabul qilingan “O`zbekiston Respublikasi xorijiy tillarni o`rganishni takomillashtirish bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar tog`risida”gi qarorida hamda 2022-yil 19-yanvardagi Vazirlar Mahkamasining 34-sonli qarorida ham xorijiy tillarga nisbatan e`tiborni yanada oshirish bo`yicha qator vzaifalar belgilandi.

Adliya tizimida ham xorijiy tilni bilish tog`risidagi sertifikatiga ega bo`lish talab qilinadi. Zero yurtboshimiz ta`kidlaganidek, “Mamlakatimizda xorijiy tillarni o`qitish bo`yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo`ladigan yangi tizimni yo`lga qo`yish vaqti soati keldi. Bundan keyin maktab, litsey, kollej va umumta`lim muassasalari

bitiruvchilari kamida 2ta chet tilini bilishlari shart. Bu hamma ta'lim muassasasining asosiy mezoniga aylanishi lozim va shart.

Ingliz tilini o'rganish o'z ichiga o'qish(reading), yozish(writing), gapirish(speaking)va eshitish (listening) ko'nikmalarini oladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim jarayonida yanada ko'proq innovatsion va zamonaviy texnologiyalarda foydalanishni talab qiladi. Innovatsion texnologiyalar bu jarayonlar texnika va axborot mateiallaridan foydalanishni talab qiladi. Xususan ingliz tilini o'rganishni bu kabi axborot texnologiyalari yanada samarali va unumdor qiladi. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o'quvchilr ham axborot-kommunikatsion texnologiyalarni yanada yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Ingliz tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rganish va o'rgatish eng samarador usullardan biridir. Bu jarayonda jumladan:

❖ Kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi ingliz tilidagi video roliklarni , namoyishlarni , dialoglarni,kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitish ham mumkin.

❖ Anchagina ananaviy bo'lgan autentik –video materiallardan foydalanishi mumkin.

Bugungi kunda ommalashib borayotgan til bilish to'grisidagi sertifikatlar hamma uchun zarur hisoblanadi. Ammo ulrga erishish birmuncha qiyin hisoblanadi. Chunki abituryentlar uchun o'qishga kirish imtiyozini bersa, talabalarga magistraturaga kirishga asosiy mezondir .

Sertifikalar davr talabi desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Bugungi kunda yuqori natija olish uchun eng muhimi oliy maqsad va tirishqoqlik zarur. Ingliz tilini mustaqil o'rganish ham samaralidir. Bunda oflayn va online kurslar ham yaxshi natija beradi.

Ta'lim jarayonlarida jadvallardan, axborot texnologiyalaridan foydalanish , grammatika qoidalarini to'liq anglash va ularni amalga qo'llay bilish juda ham muhim. Ingliz tilini o'rganishga yuqori bo'lgan bir davrda, ta'limning va ma'lumot olishning barcha usullarini qo'llab korish muhim va zarur hisoblanadi. Ana shunday sertifikatlardan biri bu IELTS hisoblanadi

IELTS- bu ingliz tilini bilish darajasini aniqlovchi imtihon. Bu imtihonga mustaqil tayyorlanish mumkin agarda sizning darajangiz intermediate bolshi kerak. Xo'sh bunday tayyorlanish uchun nima talab qilinadi.

1. Stationar kompyuter yoki noutbuk, barqaror internet,
2. IELTSga tayyorgarlik ko'rish uchun foydali materiallar to'plami-Cambridge IELTS kitoblari
3. Har qanday yangiliklarlar radiostansiyasi yoki televizion kanal
4. Kuniga 2-3 soat vaqt
5. Ingliz tilidagi dialoglarni eshitish uchun yoki yozish uchun smartfon yoki mp3player

Bularning barchasi siz uchun juda ham foydali va qulaydir. Sinovga tayyorgarlik jarayoni biroz qiyin bo`lsada, haqiqiy imtihin vaqtida juda yaxshi samara beradi.

Xulosa o`rnida shuni aytish , kerakki globallashayotgan bu asrda zamonning barcha imkoniyatlaria to`liq foydalanish kerak .Mamlakatimizda yosh avlodning jahon ilm-fan yutuqlari va ilg`or texnologiyalardan keng foydalanish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun chet tillarini o`rganish va o`qitish sharoitlari yildan yilga oshib bormoqda. Hozirgi davrda xorijiy tillarni o`rganish va bilishning ahamiyati juda katta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Ta`lim to`g`risidagi O`zbekiston Respublikasi Qonuni,-T.:O`zbekiston 2020
2. The teaching of English grammar history and method by F.A.Barbour
3. Methods of teaching English M.E.S. ELIZABETH discovery publishing house
4. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet tillarini o`rganish tizimini yanada takomillashtirish to`g`risida”gi 2012-yil 10-dekabrdaqi PQ-1875 sonli qaror.(1-ilova)
5. Nilufar Nematullatev Zubaydova (2019) The teaching of English for specific purpose,:NEW YORK. USA.-30-33-B.